

**Suv xo‘jaligi vazirligining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko‘rib
chiqish natijalari haqidagi 2026 yil 1-yarim yillik
HISOBOTI**

I. Umumiy ma’lumot

Bugungi kunda Vazirlikda korrupsiyaviy xatti-harakatlar va manfattlar to‘qnashuvi ehtimoli mavjudligiga doir jismoniy va yuridik shaxslarning xabarlarini tegishli (6 ta) aloqa kanallari orqali qabul qilish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Jumladan joriy yilning 1-yarim yilligi mobaynida korrupsiya faktlariga hamda manfaatlar to‘qnashuviga doir jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan 25 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularning barchasi Ichki nazorat tuzilmalari xodimlari tomonidan qonun doirasida atroflicha o‘rganib chiqilgan.

II. Ko‘rib chiqish natijalari

Mazkur murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha 25 ta murojaatdan 4 tasi o‘z tasdig‘ini topgan hamda o‘rganish yakunlari bo‘icha 5 nafar mansabdor shaxsga nisbatan “xayfsan” intizomiy jazo chorasi qo‘llanilgan hamda 1 nafar xodim egallab turgan lavozimidan ozod qilingan.

Jumladan:

- 4 ta murojaat huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan;
- 4 ta murojaat ijobiy hal etilgan;
- 9 ta murojaat yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berilgan;
- 2 ta murojaat tegishliligi bo‘yicha yuborilgan;
- 3 ta murojaat asossiz bo‘lib, o‘z tasdig‘ini topmagan;
- 2 ta murojaat anonim deb topilgan;
- 1 ta murojaat ko‘rmasdan qoldirilgan.

III. Minimallashtirish choralari

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlar, xizmat tekshiruvlari va monitoring natijalari tahlili asosida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni, shuningdek, ularning kelib chiqish sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, Vazirlik markaziy apparati va tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ta’sirchan tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarning amalga oshirilishi hamda ularning natijadorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar rasmiy veb-saytda muntazam ravishda e’lon qilib borilmoqda.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish va
komplayens nazorat bo‘limi**